TALABALARDA IJTIMOIY USTANOVKALARNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARNING AHAMIYATI

Bekbolayev J.J.,GulDU doktaranti,

Anotatsiya: ma`lumki, talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish va rivojlantirishning empirik asoslari bir nechta muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ma`lumki, ijtimoiy ustanovkalar - bu shaxsda mavjud bo‘lgan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va ishonchlar tizimi hisoblanadi. Ular shaxsning fikrlash, qaror qabul qilish va jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: trening,shakillanish,ijtimoiy ustanovka,ijtimoiy faolik, mas'uliyatni rivojlantirish.

Annotation: It is known that the empirical foundations of forming and developing social attitudes among students include several important aspects. Social attitudes represent a system of social norms, values, and beliefs that exist within an individual. They determine a person's thinking, decision-making, and interactions within society.

Key words: training, formation, social attitude, social activity, development of responsibility.

Olib borgan ilmiy tadqiqot ishimiz davomida tajriba va to`plangan ma`lumotlarga asoslangan holda shuni aytishimiz mumkinki, bugungi, zamonaviy talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish muammosining psixologik xususiyatlari va omillari atroflicha tadqiq qilinishi zarur, qolaversa, ushbu muammoning yechimiga qaratilgan qator psixologik tadbirlar: rolli o`yinlar,davra suhbatlari, seminarlar va treninglar tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

Biz tadqiqotimizda ijtimoiy utanovkalarni shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida Guliston davlat pedagogika institutida tahsil olayotgan 119 nafar talabalar, Jizzax davlat pedagogika universitetisan 91 nafar, Qoqon davlat pedagogika institutidan 100 nafar talaba-respondentlarda o`zimiz tomonimizdan ishlab chiqilgan (A.V.Zverkov va V.Eydman so`rovnomasi modifikatsiya qilindi) “Irodaviy o‘z-o`zini ijtimoiy boshqarishni o‘rganish” test-so‘rovnomasini o`tkazdik. Ushbu test-so‘rovnomani o`tkazishdan maqsad, talabalarda shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish va ijtimoiy vaziyatlarda muvofiqlik ko‘rsatkichlarini o‘lchashga qaratilgan. Bu test-so‘rovnoma talabalarning irodaviy va ijtimoiy boshqaruv ko‘nikmalarini o‘lchashga yordam beradi. Talabalar har bir savolga javob berish orqali, o‘z qobiliyatlarini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Natijalarni sharhlashda uchta toifaga asoslandik: 7-chegaradan yuqorisi refleksivlikning yuqoriligini, 4-7 chegaralar o‘rtacha ko‘rsatkichni, 1-4 chegaralar esa

refleksivlikning past darajasini bildiradi. 8 dan 10 gacha bo‘lgan test bo‘yicha yuqori natijalar, ya’ni 7 dan ortiq miqdor shuni ko‘rsatadiki, bunday insonlar o‘z faoliyati va boshqa kishilarning xatti-harakatlarini tahlil qilishga, ularning o‘tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi harakatlarining sabab va oqibatlarini aniqlashga o‘ta moyil bo‘ladi. Bunday shaxslar asosan voqea va hodisalarning kichik detallarigacha batafsil o‘ylash istagida bo‘lishadi, ularning oqibatlarini oldindan tahlil qiladi hamda o‘z xatti-harakatlarini doimiy tarzda diqqat bilan rejalashtirishadi.


1-jadval

Talabalarning irodaviy o‘z- o`zini ijtimoiy boshqarishini o‘rganish test-so‘rovnoma savollarga javoblari (N=310)

	Savollar	1 -3 gacha	4 -7	8 -10 gacha
	Oldingizga qo‘ygan maqsadlaringizni amalga oshirish uchun qanchalik qat'iyatlisiz?			
	Guruhda ishlashda qanday rollarni afzal ko‘rasiz?			
	Qaror qabul qilish jarayonida mantiqiy asoslarni qanchalik yaxshi qo‘llaysiz?			
	O‘z hissiyotlaringizni boshqarish qobiliyatingiz qanday?			
	O‘z his-tuyg‘ularingizni tan olishingiz qanchalik oson?			
	Boshqalar bilan ocon va samimiy aloqa o‘rnata olasizmi?			
	Yangi sharoitga qanchalik tez moslashasiz?			
	Siz muvaffaqiyatli shaxsmisiz?			
	Siz qiyin vaziyatlarni qanday yengasiz?			
0	Ijtimoiy tarmoqlarda o‘z fikrlaringizni ifoda etish paytida qanchalik erkin his qilasiz?			
1	Boshqalar bilan muloqot qilishda o‘zingizni ishonchli yoki noqulay his qilasizmi ?			
2	O‘zgarishlar yuz beradigan paytda tayyorgarlik darajangiz qanday?			
3	Yangi sharoitlarga qanchalik tez moslashasiz?			
4	Stressli vaziyatlarda hissiyotlaringizni boshqarish qobiliyatingiz qanday?			
5	Ijtimoiy vaziyatlarda o`zingizni qanday tutasiz?			

Bunday odamlar asosan, boshqa shaxslarni tushunishi, ijtimoiy uning o‘rniga qo‘yishi, uning xatti-harakatlarini oldindan taxmin qilishi va shaxslarning ustanovkalari haqidagi tasavvurlarini bashorat qila olish layoqatiga ega bo‘lishadi. O‘rtacha test natijalari 4 tadan 7 tagacha ustunlar oralig‘ida bo‘ladi.1 dan 3 gacha bo‘lgan test bo‘yicha past natijalar, ya’ni 4 ta ustundan kam bo‘lishi, shaxslardagi voqea-hodisalar qanday yuz bergani, xatti-harakatlarni keltirib chiqargan sabablar va ularning oqibatlari haqida ko‘proq o‘ylashi mumkinligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotimiz davomida biz talaba-yoshlar emotsional holatlarida ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish psixologik hodisasini o‘z ichiga olgan boshqa mezonlar bilan aloqasini, ma’lum bir xatti-harakatlar davomida ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish, ya’ni ushbu holatni tashkil etuvchi turli tarkibiy birliklarning aloqa munosabatlarini o‘rganish va tadqiq qilish maqsadida “Emotsional holatlarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish” metodikasini o‘tkazdik.Buning uchun tadqiqotda G.S.Nikiforov, V.K.Vasilev, S.V.Firsova tomonidan taklif etilgan “emotsional holatlarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish” xususiyatlarini tadqiq qilishga mo‘ljallangan metodika qo‘llanildi



1-rasm. Irodaviy o‘z-o`zini ijtimoiy boshqarishni o‘rganish test-so‘rovnomasi bo‘yicha ko‘rsatgichlar.

Biz ushbu metodika orqali talaba-yoshlardagi quyidagi xususiyatlarni aniqlashni vazifa qilib oldik:

1. Talaba-yoshlarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirishning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqadorlik xususiyatlarini aniqlash.
2. Talaba-yoshlarning emotsional holatlarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirishning muhim jihatlari va ahamiyatlilik darajasini baholash.
3. Ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirishning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq psixologik xususiyatlarni o‘rganish.

Ushbu belgilangan vazifalarni bajarish uchun biz, **tajriba** guruhiga, ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish metodikasini qo‘llash maqsadida, eksperimentda ishtirok etadigan talabalarni kiritdik.Bu guruhga talabalar tasodifiy ravishda tanlandi. **Nazorat** guruhida bo‘lgan talabalar esa, eksperimentda ishtirok etmaydigan yoki faqat normal sharoitda o‘qiydigan talabalar tanlab olindi.

Keltirilgan natijalarga ko‘ra, talabalar guruhida emotsional holatlarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish tajriba guruhida past daraja 27,1 foiz, o‘rtacha 50,3 foiz, yuqori 22,6 foiz tashkil etgan bo‘lsa, shakllantirish guruhida esa past daraja 30,6 foizni, o‘rtacha daraja 44,9 foizni, yuqori daraja 24,5 foizni tashkil etdi.

Keltirilgan ko‘rsatkichlar asosida talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish darajasi nisbatan past miqdorlarda ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Психологический словарь// Под ред.В.П. Зинченко,Б.Г. Мещерякова. - 2-э изд., перераб. и доп. -М.: Педагогика- Пресс,2018.4 - 440 с.

2. Психология психических состояний: Сб-к статей. Вип.4 // Под ред. А.О. Прохорова. - Казань: Изд-во «Сентр инновасионних технологий», 2002. - 334 с.

3. Психология состояний. Хрестоматия // Составители Т.Н. Васильева, Г.Ш. Габдреева, А.О. Прохоров // Под ред. проф. А.О. Прохорова. - М.: ПЕР СЕ; СПб.: Речь, 2004. - 608 с. - С. 498.